

Yoshlarning orasiga kirish, ularning ichidan qobiliyatli, fidoyilarini topish, ularning yuragini yondirish kerak.

I. KARIMOV

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2008-yil
28-yanvar
N:5
(66650)



DUSHANBADAN

NAVBAT OLTIN MEDALGA

14 mamlakatdan kelgan jami 244 nafar iqtidorli o'quvchilar o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdi.

Qozog'iston Respublikasining Almati shahrida bo'lib o'tgan «4-Jautikov xalqaro matematika va fizika olimpiadasi»da o'zbekistonlik 7 nafar iqtidorli o'quvchilar ham ishtirok etdi.

Xorazm viloyati, Xazorasp tumanidagi 1-IMI o'quvchisi Doniyor Jumanazarov kumush, Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 1-IMI o'quvchisi Ramazon Bozorov, Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumanidagi 6-IMI o'quvchisi Farhod Haydarov bronza medallarini qo'lga kiritdilar.

Balli, deymiz yigitlarga, endi navbat oltin medalga-da!

YOSH MUSIQACHILAR IJROSI

O'zbekiston Davlat konservatoriyasida Respublika va xalqaro tanlov g'oliblari- yosh musiqachilar ishtirokida xayriya konserti bo'lib o'tdi.

Jahon va o'zbek bastakorlarining musiqiy asarlari iste'dodli musiqachilar tomonidan ijro etilishi barchani quvontirdi.

G'OLIBGA BIR MILLION SO'M

Bir necha yildirki, «LG Electronics Lnc» kompaniyasining O'zbekistondagi vakolatxonasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus ta'lim vazirligi va «Kamolot» YOIH MK hamkorligida «LG Grant» tanlovini o'tkazib kelmoqda.

Iqtidorli talabalar o'rtasida o'tkazilayotgan ushbu tanlov loyihasi yildan yilga rivojlanib bormoqda. Shunisi quvonchlik, bu loyihada endilikda Samarqand yoshlari ham ishtirok etadigan bo'ldi.

Bu yilgi tanlovda 20 nafar iqtidorli talabalar bir million so'm miqdorida grantlar bilan rag'batlantiriladi. Bu esa mazkur loyihadagi yana bir yangilik.

– Men ko'p davlatlarda bo'ldim, biroq, o'zbekistonlik yoshlar juda qiziquvchan, izlanuvchan ekan. Nasib bo'lsa, ular bilan yana-da katta loyihalar ustida ishlamoqchiman, – deydi biz bilan suhbatda «LG Electronics Lnc» kompaniyasining O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari janob Kim Djong Kvan.

Qadrli o'quvchilar, g'olib bo'lish uchun hozirdanoq a'lo o'qishga harakat qiling.



DUSHANBAGACHA

BOBOJONIM YAXSHILAR

Bobojonim juda ajoyiblar-da, biz nabiralarini yetaklab yurishdan hecham erinmaydilar. Olib borgan joylarini sanasam, adog'iga yetolmayman.

Qishki ta'til kunlarida havo ancha sovuq bo'lishiga qaramay, shahrimizning talaygina diqqatga sazovor joylarini sayr qildirdilar. Menga, ayniqsa, O'zbekiston tasviriy san'at galereyasiga qilgan sayohatimiz juda yoqdi. 2004-yilda qurilgan galereyaning hashamatli binosi poytaxtimizning eng muhtasham – Mustaqillik maydoni yonida joylashgan. Binoning ichkarisida baland gumbaz bo'lib, peshtoqi chiroyli naqshlar bilan bezatilgan ekan. Gumbazga katta, chiroyli billur qandil osilgan.

Galereyada ko'mir qalam, akvarel bo'yog'i va mo'yqalam bilan chizilgan rasmlar, ko'plab fotosuratlar hamda tangalar kolleksiyasi namoyish etilayotgan ekan. Yangi ko'rgazmadan o'rin olgan Abdulhaq Abdullayevning «Onam», «Avtoportret», «Akademik Qori Niyoziy», Rahmon Shodiyevning «Mening farishtam», «Tong», «Yakshanba», «O'tganlar yodi», «Abdulla Oripov portreti» nomli asarlari menga juda yoqdi. Tangalar kolleksiyasi bilan tanishib, yurtimiz tarixiga oid ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldim.

Bir so'z bilan aytganda, galereyadan zo'r taassurotlar bilan qaytdim. Aziz tengdoshlarim, siz ham muzeylarga, mana shunday ko'rgazmalarga tez-tez borib turing, bir olam ma'naviy zavq olishingizga ishonaman.

Madina SULTONOVA,
Respublika ixtisoslashtirilgan
maktab-majmuasining 4-«B» sinf o'quvchisi



ENG NAFIS KOMPYUTER

Dunyoda nimalar bo'lmaydi, deysiz. «Apple» firmasi eng nafis noutbukni taqdim etdi. Uning qalin qismi – 14,4 millimetr, yupqa qismi esa 4 ml. ga teng. Og'irligi – 1,36 kg. Eni – 32,5, bo'yi esa 27,7 sm.

Orangizda biror nimani ixtiro qilgan do'stlaringiz bo'lsa, bizga yozib yuboring. Bizdan ham bundan zo'r noutbuklar yaratadigan ixtirochilar chiqsa yomonmi?

VODORODLI TELEFON

Vo ajabo, shunaqasi ham bo'ladimi? Ajablanmay qo'ya qoling: texnika yana-da rivojlanib ketdi. Kanadada vodorodli telefon yaratildi. Uning afzallik tomonlari ko'p ekan.

QISHLOG'IMGA NAFIM TEGSA...

Men Yangiyo'l tumanidagi Ubay Musayev qishlog'ida yashayman. Qishlog'imizda yettita maktab, shifoxona, madaniyat uyi, tarixiy muzey ham bor. Men qishlog'imizdagi 3-umumta'lim maktabining 6-sinfida o'qiyman. Qishlog'imizda jonkuyar insonlar talaygina: jamoa xo'jaligi raisi Ozoqboy Abdullayev, qishloq xo'jaligiga katta hissa qo'shgan, qahramon Mahmud ota Ismatov, ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari Sirojiddin ota To'laganov, To'lagan hoji ota Muhiddinov, Egamberdi ota To'laganov, Toji ota To'laganovlar mana shunday insonlar sirasiga kiradilar. Shuningdek, Temir ota Yusupov, Normuhammad ota Tolipov, Eshonqul ota Alimovlar bilan maktabimizda tez-tez uchrashuvlar o'tkazilib turiladi.

Har tong poytaxtga o'qishga otlangan yigit-qizlarni ko'rib, ularga havasim keladi. Men ham maktabda a'lo baholarga o'qib, kelgusida ular singari oliy o'quv yurtiga o'qishga kirmoqchiman. Kelgusida o'zim sevgan kasb egasi bo'lib, qishlog'imga nafim tegsa, degan niyatim bor.

KITOB – MENING DO'STIMSAN

Biz sinf rahbarimiz hamda ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Muhayyo opa To'laganova bilan birga «Kitob – mening do'stim» mavzusida badiiy kecha uyushtirdik. Kechamizga tashrif buyurgan mehmonlar sinfdoshlarim Muxlisa Hakimova, Mohira Turopova, Kamola Shodiyeva, Farhod Asomovlar tomonidan ifodali o'qilgan she'rlardan bahramand bo'ldilar. Biz G'afur G'ulomning «Shum bola» asari,

Chingiz Aytmatovning «Oq kema» singari sara asarlari asosida sahna ko'rinishlarini namoyish etdik. Yig'ilganlarda, ayniqsa, «Shum bola» asaridagi Qoravoyning obrazini talqin qilgan Farhod Asomov, «Oq kema» qissasidagi bola rolini talqin qilgan Bahrom Yunusovning rollari yaxshi taassurot qoldirdi, desam mubolag'a bo'lmaydi. Bayram so'nggida Muhayyo opa bizga zamonaviy va chet el adiblarining yangi asarlaridan sovg'a qildilar. Ular, kitob bayrami har doim davom etaveradi, dedilar.

Mohira HASANOVA,
6-sinf o'quvchisi

SHUNDAY USTOZ BOR BO'LSIN!

Ra'no opa Nosirxo'jayeva sinfimizga rahbar bo'lganlariga ko'p bo'lgani yo'q. U kishi bizga Vatan tuyg'usi – tarix fanlaridan saboq beradilar. Har bir darsimizni jonli va qiziqarli o'tishiga harakat qiladilar. Har hafta so'nggida «Odobli bola elga manzur», «Men sevgan kasb», «Ota-onaga hurmat» mavzularida tarbiyaviy soatlar o'tkazib turiladi. Yaqinda «Bir burda non qadri», «Ertaklar olami», «Ona yer» mavzularida ochiq tarbiyaviy soatlar o'tkazdik. Shu kunlarda maktabimizda o'tkaziladigan katta tantana «Navro'z» bayramiga qizg'in hozirlik ko'rayapmiz. Fursatdan foydalanib, mehribon ustozlar bor bo'lsin, deyman.

Mohira TUROPOVA,
Yangiyo'l tumanidagi
3-maktabning 6-sinf o'quvchisi

Mening maktabim

SINFDOSHLARIMDAN AJRALGIM KELMADI

Biz oilamiz bilan Chamanzor mahallasidan qo'shni Abay qishlog'iga ko'chib o'tgandik. Yangi uyimizga 4-maktab yaqin bo'lgani bois, opalarim shu maktabga qatnay boshlashdi. Meni esa hecham sinfdoshlarimdan ajralgim kelmadi. Shu bois ham, opalarim galma-galdan meni eski maktabimga olib borib qo'yishardi.

Bu gapimdan 4-maktabdagilar yomon ekan-da, degan xulosa chiqarmang. U maktab ham zamon talablariga javob bera oladi, o'qituvchilari ham juda mehribon. Ammo men o'zim uchun qadrdon bo'lib qolgan mana shu maktabni bitirmoqchiman.

Ibrohim MO'MINOV,
5-sinf o'quvchisi



O'zbekiston Respublikasi bolalar va
o'smirlar gazetasi

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot
agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq
ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy
harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN»
hukumatga
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya
jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh
muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruza MATYOQUBOV

Dizayner va sahifalovchi:
Elyor
ESHCHONOV
Navbatchi:
Feruza
SOYIBJON qizi

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi-198.
e-mail: tong924@mail.ru

Tel: 144-27-25, 144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10

«O'zbekiston» nashriyot-
matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 54775
Buyurtma N: J 4635

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Ushbu maqolni davom ettiring:

«Ona yurtning omon bo'lsa, Rang-u ro'ying ... bo'lmas...»

- A) sariq;
B) somon;
D) za'faron;
E) so'lg'in.



2. «Sariq devni minib» kitobining muallifi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

- A) Xudoyberdi To'xtaboyev;
B) Quddus Muhammadiy;
D) Po'lat Mo'min;
E) Anvar Obidjon.

3. «Irkrit o'rdakcha» ertagining muallifini toping:

- A) X.K. Andersen;
B) aka-uka Grimmlar;
D) A.S. Pushkin;
E) M. Yu. Lermontov.

Ayni shu shakl necha marta uchrashini sanab yoz



ALINING BAHONASI



Maktabga bormay Ali,
Ko'chada to'p o'ynadi.
O'zidan kichiklarni,
Masxaralab qiynadi.
—Nega bormading darsga? —
deb so'radi onasi.
Bunday bo'ldi onaga,
Alining bahonasi:
— Qizartirdi muallim,
Kecha darsni bilmadim.
Borsam, ikki olardim,
Bugun darsni qilmadim.

Ilhomjon IBROHIMOV,
Jizzax shahridagi Parda
Hakimov nomli maktabning
6-«D» sinf o'quvchisi

NONNI UVOL QILMANG



Buvi-yu buvajonlarimizning «Nonni uvol qilma, agar uni uvol qilsang, ko'zing ko'r bo'ladi», degan gaplari tez-tez qulog'imizga chalinadi. Nonning bu holatga kelguniga qadar juda ko'p mehnat qilish kerak bo'ladi. Uning aziz ne'matligi ham ana shunda.

Men tengdoshlarimga non haqida bir nechta maqollar to'plagandim. Bu maqollar nonning qadriga yetmayotgan ba'zi tengdoshlarimga saboq bo'lsa, ajabmas.

Arpa ekan arpa olar,
Bug'doy ekan bug'doy.

Birni sochsang yerga,
Mingni berar elga.

Bir kun avval sochsang,
Bir hafta oldin o'rasan.


Bug'doy bo'lsa, o'lov topiladi.

Bor, bor ishda bor,
Ishlamagan nonga zor.

Nonsiz yashab bo'lmas,
Gapni oshab bo'lmas.

Birovning yog'li nonidan,
O'zingning zog'orang yaxshi.

Yozni qo'yib qish dema,
Qishga yarasha ishing bor.
Qotgan ekan non dema,
Og'zing to'la tishing bor!



Maftuna RAHMONBEKOVA,
A.Navoiy nomidagi
Nafis san'at litseyining
4-«A» sinf o'quvchisi

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim emas, hozirgi zamonda Yaxshilik degan qishloqda Anvar, Rashid, Nizom, Muhiddin, Akbar, Azizbek degan bolalar yashashgan ekan. Ular boshqalar singari urishib-talashishmas ekan. Aksincha, bir-birlari bilan juda ahil va inoq ekanlar. Bo'sh vaqtlarida bir-birlariga o'qigan kitoblari yoki yangi hikoya yoxud ertak aytib berishga harakat qilisharkan. Bir kuni ular «Yaxshilik nima?» degan savolga javob topish maqsadida, yaxshilik haqidagi fikrlarini o'zlari qilgan xayrli ishlar misolida yoritib berishga harakat qilishibdi:

— Yaxshilik bu o'zingdan kattaga joy berish, — debdi Anvar.

— Bu hurmat-ku, agar biror kishining qo'lidagi og'ir yukini ko'tarishga yordam bersang, bu yaxshi ish, to'g'rimi? — debdi Azizbek.

— Men har kuni singlimni o'ynataman, oyimga uy ishlarida yordam beraman, — debdi Rashid mag'rurlanib.

— Men esa, — deb gap boshlabdi Akbar, — opam rangli qalamlarimni so'rab tursa, berib turaman.

Nizom esa dadasiga issiqxonadagi ekinlarni parvarish qilishga yordam berishini aytib, mag'rurlanibdi.

Hamma yaxshilik haqidagi o'z mulohazalarini aytib bo'lgach, bolalar jim turgan Muhiddinga

YAXSHILIK

qarashibdi. Shunday ham mulzam bo'lib o'tirgan Muhiddin:

— Men bu haqda o'ylab ham ko'r m a g a n

ekanman, — debdi. U shu topda o'rtoqlarining fikr-mulohazalariga havas qilib o'tirardi.

Ota-onasining gap-so'zlariga parvo qilmay, uzzu-kun ko'chada koptok tepadigan Muhiddin endi yaxshi tarafga o'zgargan, maktabda ham dars qoldirmaydigan bo'libdi. Ahil og'a-inilar o'zlari bilmagan holda Muhiddinni yaxshi tomonga o'zgarishiga sababchi bo'lib qolishgan ekan.

Azizbek YOQUBOV,
Toshkent shahridagi
219-maktabning
3-sinf o'quvchisi



OQ KAPTARNI ROSA KUTDIM

Gohida katta bir ijodkor, yosh bolalar kabi yozgan she'ri ko'tarib kelsa, hayratlanasan kishi.

Tohirning she'rlarini o'qib, uning dunyoqarashi yosh bolalarga mutlaqo o'xshamasligini sezdim.

*Izg'iringa yuzim tutdim,
Oq kaptarni rosa kutdim...*

*Senga oq kaptarning
Parvozini tilayman, Tohir!*

AXTAMQULI



G'amgin-g'amgin sayraydi qush,
Mening qalbim chohlaridan.
Orzu tomon yetaklar tush,
Gullar unar ohlaridan.

Ma'yus sayrar xasta qushcha,
Kimdir uni yaralagan.
Ovozchasi g'amgin buncha,
Ko'nglim bog'in saralagan.

G'amgin sayrar oqsoq qushcha,
Najot so'rab qanot qoqar.
Nololari tushkun buncha,
Ko'zlarimga mungli boqar.

Kimdir senga sopqon otdi,
Soqqalari menga botdi.
Ko'nglim nogoh g'amgin bo'lib,
Ko'zlarimga hayrat qotdi.

Yetar endi, chekma afg'on,
Chorlar seni yer-u osmon.
Izg'iringa yuzim tutdim,
Oq kaptarni rosa kutdim.

Oppoq edi oydinli tun,
Uchib keldi ertasi kun...
Endi esa yig'lamayman,
Bag'rimni hech tig'lamayman...

Tohir OYBEK,
Toshkent viloyati,
Yuqorichirchiq tumanidagi
18-maktab 7-«V» sinf

Mana, umrimizning yana bir yangi yilini qarshi oldik. Borliq oqlikka, poklikka burkangandek, go'yo. Qishning oppoq tulporlari misol buralib-buralib yog'ayotgan qor zavq-u shavq ulashadi kishiga. Ayniqsa, bolajonlar quvonchining cheki yo'q. Ularga sovuq ham sezilmaydi. Oyoqlari ostidagi qorning g'ichirlashidan zavqlanib, birlariga qor otib, qarddon daraxt shoxlari sari oshiqishyapti. Ular orasidagi munis bir ayol diqqatimni tortdi. O'zgacha mehr bilan boqardi uning ko'zlari, bolalarning sho'xliklarini zavq bilan kuzatarkan. U ham mana shu muqaddas bilim dargohi sari oshiqyapti. Boisi, o'quvchilaridan avvalroq kelib, «Mo'jizalarga boy sinf xonasi»da ularni qarshi olishi kerak... Fahmlagandirsiz, bu inson barchamiz uchun aziz va ardoqli bo'lgan mehdaryo ustozlarimizdan biri Muqaddam opa Yusupova bo'ladilar. O'ttiz yildan buyon Toshkent shahar, Sobir Rahimov tumanidagi 249-umumta'lim maktabida o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berib kelayotgan opaning nomini nafaqat hamkasblari, o'quvchilari, balki ularning ota-bilan tilga oladilar. Chunki o'tadigan deyarli opa boshda o'zlari ham tanlovlarda yuqori qo'lga kiritib 2004-yilda «Eng o'qituvchi», biologiya fani egallagan fikrimizning isbotidir.

Ustozning el-u yurt oldidagi ulkan xizmatlari hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. Opa O'zbekiston Respublikasi «Xalq ta'limi a'lochisi» ko'krak nishoniga sazovor bo'ldi.

Hademay umrining elliginchi bahorini qarshi oladigan ustozimizni yuksak mukofotlar sohibi bo'lishlarini istardik. Chunki ko'zlari mehr-muhabbatga to'la, qo'llari doimo duoga ochilgan Muqaddam opamiz izzat-u ehtiromlarga loyiqdir. Barcha maktabdoshlarimiz nomidan ustozimizni tavallud ayyomlari bilan samimiy qutlaymiz. Farzandlari, biz shogirdlari baxtiga omon bo'lsinlar!

Mohina SALIMOVA, Aziza JALILOVA,
S. Rahimov tumanidagi 249-maktab o'quvchilari

**Ko'zlari
bola ayol**

G'UNCHAOYNI TABRIKLAYMIZ!

Bolalar-e, bolalar, eshitmadim demanglar, sevimli jurnaligiz G'UNCHAOY ellik yoshga «to'libdi». Qiziqarli sahifalari «Ustoz oq yo'l tilaydi», «Turnalar – maktublari turlanar», «Ishla qalamim, bo'ya bo'yog'im», «Bisot» kabi ruknlar bilan yana-da boyibdi. O'quvchilarining soni ham ortgandan ortibdi.

Bezaklari, rang-barangligini aytmayisizmi, ko'rsangiz, dizayner Yulduzxon opangiz mahoratiga yana bir bor tasannolar aytasiz. Kichik musavvir tengdoshlaringiz esa uni o'z rasmlari bilan yana-da boyitishyapti.

Hozirgi kunda sevimli jurnaligizni shoira opangiz Umida Abduazimova

boshqarayotganlarini yaxshi bilasiz-a? Shundanmi, jurnal sahifalarida kichkintoylarning she'riy mashqlariga juda keng o'rin berilyapti.

«Tong yulduzi»ning ko'p ming sonli o'quvchilari nomidan G'unchaoyini «tug'ilgan kuni» bilan samimiy qutlaymiz! Yuz yoshga kirganda ham hamisha mana shunday quvnoq va bolajon bo'lib yurishiga tilakdoshmiz.

Quyida e'tiboringizga jurnal sahifalarida chop etilgan hikoya va she'rlardan havola qilyapmiz. Ularni o'qib, uyingizga «G'uncha» kelganida, quvonchingiz ichingizga sig'may ketgan o'yinqaroq kunlaringiz yodingizga tushib ketsa, ajabmas.

KITOB

Kitobga qo'ydim mehr,
Unda mo'jiza sehr.
Bilimlarga kon o'zi,
Bebahodir har so'zi.
Ertaklar bordir unda,
O'qiyman hatto tunda.
Eng yaqin do'stdir kitob,
Nur sochar misli oftob.

**Shahodat
ISKANDAROVA,**
Xorazm viloyati,
Urganch shahridagi
5-maktabning 2-sinf
o'quvchisi



**Jahongir
MIRAHMEDOV**
chizgan rasm

ONA TILIM

Ona tilim – jon tilim,
Sensan mening yuragim.
Sen bo'lmasang, men yo'qman,
Jonday aziz keragim.
G'urur ila, faxr ila,
So'zlaydirman baralla.
Dunyo bo'ylab hamisha,
Turgin deyman jaranglab.

Sevara NURIDDINOVA,
Namangan viloyati, Chust
shahridagi
Ixtisoslashgan internat-
litsey o'quvchisi



ODIMLARI SHAXDAM



O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan insonlarni ko'rsak, shu kasb uchun yaralgan ekan-da, deymiz beixtiyor. Bundan besh-olti yil avval oynayi jahon orqali namoyish etilgan

«Qizlar davrasi» ko'rsatuvida boshlovchilik qilgan o'n besh yoshli Kamolaxon Ermatovani ilk bor ko'rganimda, mening xayolimdan ham shunday o'ylar kechib: «Bu qiz kelgusida ajoyib teleboshlovchi-jurnalist bo'lib yetishadi», deb qo'ygandim o'zimga o'zim. Adashmagan ekanman, Kamolaxon aynan O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga kiribdi. Ayni damda 4-bosqich talabasi bo'lgan Kamolaxon fanlarni a'loga o'zlashtirish bilan birga, «O'zbekiston» teleradiokanali orqali namoyish etilayotgan «Qizlar davrasi» hamda «O'zbekim o'g'lonlari» madaniy-ma'rifiy ko'rsatuvlarida boshlovchilik ham qilib kelyapti.

2006-yilda Belgiya davlatining Sharlerua shahrida o'tkazilgan «Marsinel – 2006» xalqaro folklor qo'shiq va raqslari festivalida, 2007-yilda esa Malayziya davlatining Saravak shtatida o'tkazilgan xalqaro «Hosil – 2007» festivalida «O'zbekim yoshlari» guruhi tarkibida ishtirok etib, o'zbekimning betakror san'atini jahonga yana bir bor «ko'z-ko'z»lab kelishdi.

Kamolaning Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibalari qatoridan olgan munosib o'rni bor.

Hozirgi kunda «O'zbekiston» teleradiokanalida «Xotin-qizlar masalalarining

yoritilishi» mavzusida izlanishlar olib boryapti.

Rus, ingliz tillarini mukammal biladigan Kamolaxon ayni damda ispan tilini ham zo'r ishtiyoq bilan o'rganyapti.

– San'atga mehr qo'yishimda musiqa fani ustozimiz Ahad aka G'ulomovning hissasi katta deb o'ylayman, – deya hikoya qiladi Kamola. – Besh yarim yoshimda bog'chadan qochib kelib, maktabda o'qiyman, deb turib

olgan ekanman. Deraza qarshisiga turib olib, o'zimcha «boshlovchilik» qilardim. 7-sinfda o'qib yurgan chog'imda musiqa ustozimiz Ahad aka G'ulomov bilan birgalikda yaratgan «Ona Vatanim» nomli qo'shig'im bilan «San'at g'unchalari» ko'rsatuvida ishtirok etganman. Bu chiqishim qalbimda san'atga havas uyg'otgan bo'lsa, «Qizlar davrasi»da boshlovchilik qilishim jurnalistikaga mehr qo'yishimga turki bo'ldi.

Mazkur yilimizni ham Kamola quvonchli xushxabar bilan qarshiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-2008-o'quv yili Davlat stipendiatlari qatoridan joy oldi.

Tunov kuni xizmatdan qaytayotsam, ikki qizaloqning suhbat qulog'imga chalinib qoldi:

– Qara, «Qizlar davrasi»ni olib boradigan qiz kelyapti. Juda chiroyli ekan-a? – dedi ulardan biri dugonasini turtib.

– Ha, ha, ko'rdim, o'ziyam zo'r olib boradi-da, – havas bilan termuldi ikkinchisi.

Beixtiyor o'g'irilib qaradim, Kamolaxon kelyapti. Qizchalar havas qilishganicha bor: odimlari shaxdam, nigohlari o'ktam, ertasiga ishonch bilan boqayotgan bugunning yoshlaridan.

QANOT BAXSH ETMOQDA



O'tgan 2007-yilimiz men uchun juda omadli keldi. «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida o'tkazilgan «Onajonim – mehribonim, sen-la yorug' qalb jahonim» nomli insholar tanlovida sovrinli 2-o'rinni egallagan bo'lsam, «O'zbekiston madaniyati va san'ati formi» hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamkorligida tashkillashtirilgan «Yangi avlod» ko'rik-tanlovida qatnashib, katta taassurotlar bilan qaytdim. Nasib etsa, bu yil o'z ustimda yana-da ko'proq ishlab, izlanib, «Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovida qatnashish niyatim bor.

Mazkur yilimizning «Yoshlar yili» deb nomlanishi esa kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shmoqda, ulkan cho'qqilarga parvoz qilishimizda qanot baxsh etmoqda.

Men maktabimiz o'quvchilari nomidan yurtboshimizga katta minnatdorchilik bildiraman va bizga bildirilgan yuksak ishonchni oqlashga astoydil harakat qilaman. Buning uchun bizda barcha sharoitlar muhayyo. Birgina poytaxtimizdagi «O'quvchilar saroyi»ni olaylik. To'quvchilik, tikuvchilik, musiqa saboqlari, ingliz, rus, arab tillari, kompyuter saboqlari, dizaynerlik kabi to'garaklar qishda ham yoshlar bilan gavjum. Men ham ana shu maskanda til o'rganyapman. Maqsadim, chet tillarida yurtimiz haqida maqolalar yozish va shu tariqa yurtimiz dovruq'ini dunyolarga yoyish.

Umida SHARIPOVA,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi

2-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

GO'ZALLIKDAN ILHOM OLADI

Madinabonu Toshboyeva Andijon shahrida sandiqsozlar oilasida dunyoga keldi. Dadasi usta Abdumannop aka qizidagi rasm chizishga bo'lgan havasni ko'rib, 2002-yilda uni To s h k e n t d a g i

Respublika tasviriy san'at litseyiga olib keldi. Qizchadagi tabiat go'zalliklarini ziyraklik bilan ilg'ab olish, chuqur his etish fazilati tez orada litseyning iqtidorli o'quvchisi sifatida tanilishiga yordam berdi.

Madinabonu ilk bor 2003-yilda Hindistonda o'tkazilgan «Shankar» xalqaro bolalar rasmlari ko'rik-tanlovida ishtirok etish baxtiga muyassar bo'ldi. O'shanda uning mo'yqalamiga mansub «Baxtli bolalik» rasmi ko'pchilikka manzur bo'lgandi. Shu yili «Rossiya o'rmonlari» rasmi «Rossiya – o'zbek bolalari nigohida» tanlovida, «Biz – kelajak avlodimiz» rasmi Chexiyadagi xalqaro bolalar tanlovida m u v a f f a q i y a t

qozondi. Bu yil iqtidorli musavvir fransuz yozuvchisi Antuan de Sent Ekzyuperi asarlariga bag'ishlangan tanlovda «Kichik shahzoda» asari bilan qatnashib, tomoshabinlar e'tiborini qozondi.

Iqtidorli mo'yqalam sohibi rasmlaridagi muxlislarini maftun etgan jihatlar – voqelikni bolalarcha talqin etish, ranglar beg'uborligi, timsollarning rang-barangligidir.

Yosh musavvir Madinabonu bu yil litseyning 5-sinfida tahsil olmoqda. Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga bag'ishlab, Andijonda uning rasmlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Undagi rasmlarda xalqimizga xos bag'rikenglik, saxovat, mehr-muruvvat tuyg'ulari aks etgan.

Biz Madinabonuga kelajakda ham olam go'zalliklaridan ilhom olib, nodir asarlar yaratishini tilab qolamiz.

Zamira TO'LAGANOVA



OQDARYONING BIR QIZI



Samarqand viloyatidagi Oqdaryo pedagogika kasb-hunar kolleji o'quvchisi Nazokat Abdurahimova yoshligidanoq Zulfiyaxonim qizlari safida bo'lishni orzu qilardi. Lekin maqsadga erishish uchun orzu qilishning o'zi kifoya qilmasligini yaxshi bilgani uchun ham tinmay izlandi. Kollejda o'tkaziladigan ilmiy-amaliy anjumanda adabiyot fanidan «Buyuk siymolarimiz» mavzusi bo'yicha ishtirok etdi. «Balli, qizlar!» ko'rik-tanlovida qatnashib, birinchi o'rinni egalladi. 2005-yilda bo'lib o'tgan viloyat fan olimpiadasida iqtisod fani bo'yicha qatnashib, birinchi o'rinni egallaganda, quvonganini bir ko'rsangiz edi...

2006-yil ham uning hayotida muvaffaqiyatlarga boy bo'ldi. Pedagogik amaliyot davrida o'zi yasagan ko'rgazmali qurollari, ijodiy ishlari bilan darslarni samarali tashkil qilgani uchun «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi. Yana «Eng iqtidorli mutaxassis» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida «Yangi pedagogik texnologiyalarda dars o'tish usullari» mavzusidagi ishi bilan qatnashib, birinchi o'rinni egalladi va «Barkamol avlod» stipendiyasi sertifikatini bilan taqdirlandi. Tajribalari asosida ikkita uslubiy qo'llanma yaratdi. Uning ijodiy ishlaridan namunalar «Yoshlar» teleradiokanali va Samarqand viloyati teleradiokanalining «Haftanoma» ko'rsatuvida e'fira uzatildi. «Ulug'bek vorislari», «Zarafshon», «Oqdaryo ovozi» gazetalari maqolalari chop etildi.


U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi. Pazandalik sirlari va qizlarda yetakchilik qobiliyatini shakllantirish masalalari bo'yicha kollej qoshida «Yetakchi qizlar» to'garagi tashkil qilib, dugonalariga pazandalik sirlaridan saboqlar berib kelyapti.

O'tgan yili u bolalikdagi eng oppoq, samimiy orzulariga erishdi. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'ldi.

Bag'rida Kamola-yu, Nazokatdek, Umida-yu, Madinabonudek izlanuvchan, maqsad sari intiluvchan yoshlari ko'p bo'lgan yurtning ko'ksi tog', boshi osmonlardan-da balandroq bo'lishi tayin.

Yoshmisan, keksani sen hurmat ayla,
O'zing ham qariysan, hozirdan o'yla.

ATTOR



PANURJNING ODASI

XVI asrda yashab ijod qilgan buyuk fransuz yozuvchisi o'zining «Pantagruel» asarida quyidagi voqeani hikoya qiladi:

Bu asarning asosiy qahramonlaridan biri Panurj dengizga sayohatga chiqadi.

Qo'y savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogar – Dindeno o'zining o'ttizta qo'yi bilan aynan shu kemaga joylashgan edi. Dindeno juda mag'rur va ayni paytda juda ahmoq edi. U kambag'al va aqlli Panurjning ustidan kulishdan rohatlanardi.

Panurj undan quyidagicha qasos olgan:

Bir kuni u savdogarni gapga tutdi.

Adiblar bolalarga

Bu galgi majlisda mazza qilganda, Karimboy chol bilan biz mazza qilib qoldik. Men ikki marta mazza qildim. Zayniddin mard bola. Ishtonini po'stloq bilan bog'ladi-da, rezinkasini chiqarib berdi. Cho'zma yasasam, berib turadigan bo'ldim. Majlis tugashi bilan Karimboy choldan suyunchi olgani chopdik.

U kishi qo'shnisi Qo'chqor ko'r bilan gaplashib o'tirgan ekan. Xushxabarni eshitib, ko'zlari kulib, qip-qizil lablari cho'chchayib ketdi. Karimboy cholning og'zi kirpining og'zidek kichkina.

– Suyunchini cho'zib qo'ying endi, – dedik u kishiga erkanlab.

– Ha, bo'laqoling, – chuvillashdi bolalar.

– Eshitdingmi, Qo'chqor, shu Siroj baraka topkur juda hotamtoy pirqa-da.

– Qulluq bo'sin, ishton-ko'ylakli bo'lish osonmi hozirgi zamonda, – deya Qo'chqor aka cho'tir bosgan yuzini osmonga qaratib, havaslangan bo'ldi.

Aytishlaricha, Qo'chqor aka onadan soppa-sog' tug'ilgan. Suvchechak toshib, ikkala ko'zi ham oqib tushgan. Yuzi cho'tir bo'lib qolgan. Ammo yurganda, u kishiga birovning yetovi kerakmas. O'zi ko'cha-ko'yda bemalol yuraveradi. «Alpomish» dostonini simyog'ochning tagida o'tirib, karnaydan bus-butun yodlab olgan. Ko'chada yursa, nuqul «Balanddan kuylatinglar, eli yurti zora Alpomish-ay...», deb ovozni baland qo'yib yuradi.

– Birpas jim turlaring, – deb Karimboy chol o'shqirib berdi, –

o l a s a n l a r
s u y u n c h i n i,
q o c h i b
k e t m a y m a n,
s e n l a r d a n q o c h i b
q u t u l i b
b o ' l a r k a n m i ? !
X o ' p, Q o ' c h q o r, –
d e y a K a r i m b o y
c h o l
s u h b a t d o s h i g a
q a r a d i, – e n d i
k e t a s a n m i ?

– Sizning qo'ylaringiz juda ajoyib, janob Dindeno.

– Men buni yaxshi bilaman, bular Fransiyaning va dunyoning eng zo'r qo'ylari.

– Men ulardan bittasini sotib olmoqchi edim.

– Bittagina qo'yni nima qilasiz? Pulini qanday to'lamoqchisiz?

– Men hoziroq naqd pulda to'layman.

– Yaxshi, roziman!

– Anavi kattasini olaman.

– Oh! Unisi. Lekin unisi boshqalaridan ko'ra juda qimmat turadi.

Dindeno juda katta narx qo'yib yubordi. Panurj rozi bo'ldi va to'ladi, keyin u qo'yni ushladi-da, dengizga uloqtirdi. Shu zahotiyoq boshqa hamma qo'ylar hamrohlari ketidan sakrab, o'zlarini dengizga tashladilar. Dindenoning ularni to'xtatib qolishga bo'lgan urinishlari zoye ketdi, u oxirgi bittasini bo'ynidan ushlab qolgan edi. Lekin uning o'zi ham o'sha qo'y bilan dengizga tushib ketdi.

O'sha vaqtdan beri ahmoq odamlarni boshqalardan ajratish uchun «Bular Panurjning qo'ylari», deyishadi.

Fransuz tilidan N.SHARIPOVA
tarjimasi

– Ha, boray... gap shu, to'yni boshida o'ziz turasiz.
– Yaxshi, bo'masa, Mirsaidga uchrab ket, menga atalgan bo'zni olvol.
– Kennoyiga kiritvoraymi?
– Yaa-aq, kennoyingga berma, galvars. U olifta bilmay qo'ya qolsin. O'zingga ko'ylak-ishton tiktirib kiy to'y oldidan. Xudo yetkazdi o'zi senga.



Qo'chqor aka xursand bo'lganidan qo'shiq aytib yubordilar:

– Balanddan kuylatinglar eli yurti zora Alpomish-ay...

Qishloqda To'ychi xolaning qizi Omina opani Qo'chqor akaga unashtirilgani haqida gap yurib qolgan edi. Bundan chiqdi rost ekan-da. To'y bo'lsa, mazza, bir marta bo'lsayam qornimiz nonga to'yib qoladi.

Obbo, ko'ylak-ishton ham Qo'chqor akada ketdi-ku, endi suyunchisiz qoldik deb, tumshayib turgan edik, Karimboy chol bizga qaradi:

– Mana, – dedi u yerga chaksa qilib tupurib, – suyunchisiga shu tupuk quruguncha mollaringni bedaga yoyib ollaring, bo'ldimi?

– Ur-r-e-e-e... bedapoyaga ruxsat! Bunchayam yaxshisiz, Karimboy tog'a.

Tamom

TAHRIRIYATDAN:

Aziz o'quvchilar, yurtimizda siz yoshlarning bilimli, ilimli, ma'naviyatli, kitobxon bo'lib kamol topishingiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Bolalar shoirlari va adiblari ham bu sharoitlardan ruhlanib, barakali, sermahsul ijod qilyaptilar.

Sevimli yozuvchingiz Erkin Malikning «Uchar otlar bo'lgan edi» nomli qissasi fikrimizga dalil bo'la oladi. Qissa qahramoni bir so'zli, vijdonli, imyon-e'tiqodli, shu bilan birga, o'ta chapani inson Karimboy cholning kechmishlariga qisman oshno bo'ldingiz.

Qissaning davomiga qiziqib qolgan bo'lsangiz, kitob holda chop etilgach, uni albatta qidirib, topib o'qiysiz, degan umiddamiz.

Mashaqqatli yo'l boshida

Odatda uzoq va mashaqqatli yo'lni jasur odamlar tanlaydi. Adabiyotda nasrni ana shunday kam tanlanadigan og'ir yo'l deyish mumkin. 8-sinf o'quvchisi Dinora Rahimovaning kichik hikoyalarini o'qiganimda, oddiy kundalik voqealar iste'dod nigohidan o'tib qog'ozga tushganiga guvoh bo'ldim. Sinchkov nazar va tasavvur badiiy asar muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Dinoraning hikoyalarida ana shunday sinchkovlik uchunlarini ko'rish mumkin. Masalan, «Yozgi ta'til» hikoyasidagi ikki parchani olaylik: «...Kechqurun yomg'ir yog'ib o'tgan bo'lsa kerak, havo salqin va toza...» yoki «...Men ba'zan osmonda suzib yurgan oppoq bulutlarni kuzatar edim. Shaksiz bulutlarni ayiqchaga, tuyaga, qo'zichoqqa va shu kabi hayvonlarga o'xshatishni yaxshi ko'rardim...»

Ijodkor ana shunday uslubda, kuzatishda, izlanishda davom etsa, ajabiyotimizda chinakam yozuvchi paydo bo'lishiga ishonaman va qalamkash singlimizga uzoq va mashaqqatli yo'lda iroda tilaymiz.

Iqbol MIRZO,
O'zbekiston xalq shoiri



Biz cho'milib turganimizda, qandaydir g'alati tovush eshitdim. Tovush kelgan tomon suzib bordim. Kuchukcha suvda oqib ketmoqda edi. Bechora kuchukcha qirg'oqqa intilar, lekin suv oqimini yenga olmas edi. Shu zaylda bizdan tobora uzoqlashib borar edi. Kuchukchani tutib, singlim bilan suvdan olib chiqdik. Suvdan dir titrar edi. Shunday ilk kunda kuchukchani sovqotganiga rahmimiz keldi. Uni isitish uchun oftobga olib chiqqan edik, tipirchilab qo'limizdan chiqishga harakat qildi. Biz uni qo'yib yubordik va qilgan ishimizdan xursand bo'ldik. Uyga borib, bo'lgan voqealarni oyimga aytib berdik. Oyim xursand bo'lib, mening xaloskor qizlarim, deb erkalab qo'yidilar. Oradan bir kun o'tib, ko'chada o'ynayotgan edik, nimadir oyog'imga surkala boshladi. Men bundan cho'chib, o'zimni chetga oldim. Shunda singlim: – Opa, opa, qarang, kechagi biz qutqargan kuchukcha, – deb quvonib ketdi.

Kuchukchani ortidan kelayotgan egasi:


– Iya, mening olaparimni kecha sizlar qutqargandirlarmi?! Rahmat sizlarga, yaxshi qizlar ekansizlar. Kecha kuchugimni yo'qotib qo'ydim, deb xafa bo'lgan edim, kutilmaganda, shalabbo holda kirib keldi. Suvga tushib ketgan bo'lsa, uni kim qutqargan ekan, deb o'yladim. Rahmat, qizlarim! Qaranglar, olapar ham sizlarni tanib qolibdi, – dedi.

Biz o'z ishimizdan xursand bo'ldik.

Dinora RAHIMOVA

Yoshlikda nimani
eksang, ulg'ayganda
o'shani o'rasan.
GIBSEN





JASMINANING YUTUG'I

Jasmina bizning qo'shnimiz. U ikki yildan buyon poytaxtimizdagi bolalar sport maskaniga qatnaydi. Uning bu dargohga kelishiga shifokor opasining maslahati qo'l keldi. Hozir uning oyoqlaridagi nuqson yo'qolib, oyog'ini tekis bosadigan bo'ldi. Oyisi 5 yoshli qizchamga sport olamiga kirish hali erta, deb o'ylardi. Ammo Anela Malkinadek mehribon murabbiya saboqlari ona-bolani kundan kunga qiziqтира boshladi.

Dastlab Jasmina sportning nozik va nazokatli usullarini o'rgana boshladi. Onasining bir-biridan chiroyli tikib bergan kiyimlarini kiyib zavqlandi. Hozir u sportning badiiy gimnastika turida lentalar, koptoklar, sharlar bilan mashq qilishni uddalaydi.

Hatto sport majmuasida o'tayotgan musobaqalarda g'olib deb ham topildi. Ayniqsa, yangi yilga bag'ishlangan bayram kechasida yana uchinchi esdalik diplomini va «Fond forum» jamg'armasining qimmatbaho sovg'alari uni quvontirdi.

Mashg'ulotlarda chiniqqan, erta turib sport zaliga oshiqqan, ustozidan har kuni yangi bir usullarni

o'rganayotgan jajji Jasminani ko'rsangiz, sizning ham havasingiz ortadi. Chunki Jasmina xuddi gimnastikachilar yanglig' kiyinadi, ulardek g'ururlanadi.

Uning shiringina orzusi – katta bo'lsa, O'zbekistonimizning mashhur gimnastikachisi bo'lish. Alina Kabayeva, Oksana Chusovitina kabi chempionlar nomini ulug'lash.

Qishning qattiq sovug'idan ham hayiqmay, doimiy yaxshi ko'rib o'ynaydigan yumshoq ayiqchasini ko'targancha, shoshib oyisi bilan mashg'ulotlarga ketayotgan Jasminaning dadil odimlaridan yurtning yana bir sportchisi yetilib chiqishiga ishonchim.



OLTIN MEDAL OLAMAN

Bolajonlar! Suratni ko'rdingiz-u, «Iye, bu bizning Sardor-ku», deya suyunib ketdingiz-mi?! Ha, adashmadingiz. Chindan ham o'rtog'ingiz Sardorbek Jabborovni erishgan yutuqlari uning ustoz va murabbiylarini, ota-onasi-yu tengdoshlarini birdek quvontirmoqda. Qanday qilib, deysizmi? Buning barchasiga uning sinf rahbari Shohida opa Qodirovaning katta yordamlari, e'tibori, qolaversa, ota-onasining sportga bo'lgan qiziqishlari sababchi.



Endigina 7 yoshga to'lgan Sardorbekning chempion bo'lishiga nega sport murabbiyi emas, sinf rahbari bel bog'ladi ekan, deya qiziqishingiz oshgandir?

Poytaxtimizdagi 4-maktabning 1-«D» sinfida o'qiyotgan sinf bolalarining barchasi bilimdon. Chunki bu sinfda deyarli har kuni sport musobaqalari o'tkaziladi. Musobaqalar asosan bolalarni chiniqtirish mashqlaridan iborat. Bir necha oydirki, o'tkazilgan bellashuvlar o'z g'oliblarini tanlab olyapti. «Kim kuchli?», «Kim ephil?», «Uzoqqa sakray olasizmi?» va «Kim chidamli?», shuningdek, shaxmat, futbol o'yinlarida sinfdoshlari orasida eng ko'p g'olib bo'lgan Sardorbekka o'qituvchisi sinfimiz chempioni deb nom berdi. Bunday

yutuqdan shod bo'lgan Sardorbek endi katta chempion bo'lgisi kelyapti. Axir ustozini uni sport olamiga qiziqishiga katta yo'l ko'rsatdi-da. Biz ham jajji chempionni qutlab unga omad tilaganimizda, u bizga: «Endi faqat oltin va kumush medallar olaman, katta chempion bo'lib, yurtim nomini olamga doston qilaman», dedi.

Sardorbekning sinfdoshlari-chi, deysizmi? Albatta, ular ham hozir chempionlikka astoydil harakatni boshlab yuborganlar.

Munajat MO'MINOVA,
«Sinfdosh» jurnali muxbiri



Bolajonlar! Xabaringiz bor, bu yil Xitoy poytaxti Pekin shahrida navbatdagi «Olimpiada – 2008» musobaqalari bo'lib o'tadi.

Ushbu nufuzli musobaqaga yurtimizdan ham eng kuchli sportchilarimiz tayyorgarlikni boshlab yuborganlar.

Sportchilarimiz 1996-yildan buyon yozgi Olimpiada musobaqalarida mustaqil terma jamoa sifatida qatnashib kelmoqda.

1997-yili Atlantadagi Olimpiada o'yinlarida Sport saboqlari ishtirok etgan vakillarimiz 11 ta sport bo'yicha qatnashib, bitta kumush va bronza medaliga erishgan edilar.

2000-yil Sidneydagi natijamiz esa 11 ta sport turida bir oltin, bir kumush va ikki bronza bo'ldi. 2004-yilda Afinadagi Olimpiada bizga 12 ta sport turi bo'yicha ikkita oltin, bitta kumush va ikkita bronza medallarini tuhfa etgandi.

Hozirda «Pekin – 2008» Olimpiadasiga sportning 10 turidan 24 nafar sportchilarimiz yo'llanmalarni qo'lga kiritishdi.

Yo'llanmalar uchun kurash davom etmoqda. Bu Olimpiada ham bizlarga albatta omad keltirishiga ishonamiz.

TEST SAVOLLARI

1. Eng birinchi Olimpiada o'yinlari qayerda o'tkazilgan?

- A) Afina;
- B) Praga;
- D) Rim;
- E) Misr.

2. Dastlabki Olimpiada o'yinlari qachon o'tkazilgan?

- A) 1896-yil;
- B) 1888-yil;
- D) 1897-yil;
- E) 868-yil.

3. Nima sababdan har olimpiada o'yinlarida sportchilar zaytun daraxti shoxidan yasalgan gulchambarlar bilan taqdirlanishgan?

- A) greklar e'tiqodicha, bu muqaddas tayoq hisoblangan;
- B) greklarning o'ylashicha, zaytun daraxti omad keltirgan;
- D) greklar e'tiqodicha, bu muqaddas daraxt hisoblangan;
- E) oliy Xudo Zevs tomonidan joriy etilgan.

4. Olimpiada o'yinlar necha kun davom etadi?

- A) 14 kun;
- B) 15 kun;
- D) 16 kun;
- E) 17 kun.

5. Olimpiada madhiyasi kim tomonidan yozilgan?

- A) Maykl Duglas;
- B) Ruje de Lill;
- D) Piyer Bomarshe;
- E) Georgios Kiriakos.

6. Muhammadqodir Abdullayev qayerda o'tkazilgan Olimpiadada boks bo'yicha Olimpiada g'olibi bo'ldi?

- A) Qatar;
- B) Keyptaun;
- D) Sidney;
- E) Afina.

7. XXVII yozgi Olimpiada o'yinlariga qaysi mamlakat mezbonlik qilgan?

- A) Ispaniya;
- B) Germaniya;
- D) Avstraliya;
- E) Italiya.

Jamshid NABIYEV,
O'zMU jurnalistika
fakulteti 2-bosqich talabasi

Yoshlik
dovyuraklik fasli.


STENDAL

Sahifani M.MADRAHIMOVA
tayyorladi


Turnaning o'zi ham, kulishi ham chiroyli ekan



Ismim Nurislom. Otam yaxshi bolasan, deyдилar. Toshkentdagi 97-maktabda tahsil olaman. Bo'sh vaqtlarimda suratlar olib turaman. Suratga olish uchun ham bilim va tajriba kerak. Qo'limdan kelgancha yaxshi suratlar olishga harakat qilayapman. Bu gal poytaxtimizdagi hayvonot bog'ida bo'lib, turli suratlar oldim. Ularni sizlarga havola qilayotganimdan xursandman.




Tuya ustida emas, fazo kemasida o'tirgandek quvonadi




Ha, maymuncha, qorin to'ydimi?!


Gazni bos, shovvoz!



Ur-re, konfetni yeb qo'ydi




HAYVONOT BOG'IDA



Bizga qaragisi ham kelmayapti

I.A.KRILOV



Bir kuni kuchuk otga maqtana ketibdi:
– Men uzluksiz, kecha-yu kunduz uyni qo'riqlayman, sen bo'lsang, faqat kunduz kuni vaqti-vaqti bilan yer haydaysan.
– Agar men yer haydamaganimda, sen qo'riqlaydigan narsaning o'zi bo'lmasdi, – debdi ot kuchukka.



ESHAK VA OT

Bir kishining eshagi va oti bor ekan, ular yo'lda ketayotganlarida, eshak otga debdi:
– Yukim juda og'ir-da, hamma narsani bir o'zim tashiy olmayman-ku, menga ozgina bo'lsa-da, yordam ber.

Ot uning gapiga quloq solmabdi. Eshak yukning og'irligidan yo'lda yiqilib, o'lib qolibdi. Shunda xo'jayin eshakning ustidagi barcha yukni olib, otga yuklabdi. Bu ham yetmagandek, eshakning terisini ham shilib otga ortibdi. Ot uf tortib: – Eh, men bechora baxtiqaroga juda og'ir bo'ldi-da. Eshakka ozgina bo'lsa-da, yordam berganimda, shuncha og'irlik bir o'zimga tushmagan bo'lardi, – deya afsuslanibdi.

Dildora RO'ZIMHAMMADOVA
tarjimalari

Bu ajib dunyo



Qovoq haqida
siz bilmagan o'n
dalil

1. Qovoq ham bodringlar mansub bo'lgan oilaga kiradi.
2. Antarktidadan tashqari, dunyoning barcha hududida qovoqni yetishtirish mumkin.
3. Yer yuzida qovoqning poytaxti AQSHda joylashgan bo'lib, qovoq ishqi bozlarini Illinoys shtatining Morton shahriga borishlarini tavsiya qilamiz.
4. AQSH davlatida qovoqni kesib, undan fonus – chiroq (fonar) irlandlar tomonidan joriy qilingan bo'lib, shu tarzda har yili Samayn deb nomlanuvchi bayramini nishonlash odat tusiga kirgan.
5. Qovoqning 50 dan ortiq navlari mavjud.
6. Eng kichik qovoqning vazni bir kiloga yetmaydi, agarda qulay sharoitda parvarishlab yetishtirilsa, hatto uning vazni 250 kilogrammgacha boradi.
7. Agarda qovoqdan yasalgan fonus – chiroqni qovog'i qurib qolsa, uni bir kecha suvga solib qo'yilsa, yana o'z holiga qaytadi.
8. Pushti rang qovoqdan tashqari, ko'k, yashil va oq rangdagilari ham uchraydi.
9. 1999-yili pensilvaniyalik (AQSH) Djerri Chekton dunyodagi eng katta qovoqni yetishtirgan. Ushbu haybatli qovoqning vazni 513 kg. edi.
10. Qovoq juda foydalidir. Uning urug'i gijjalarga qarshi dorivor sifatida qo'llaniladi, eti esa kuyganda foydalidir.

Aziz o'quvchilar! Qancha ko'p bilsangiz, shuncha kuchlisiz. Oy nomlarini, muchalni e'tiboringizga havola etayapmiz. O'rni kelganda, u sizga kerak bo'ladi.

Muchal taqvimi 22-martdan boshlanadi, hozirgi taqvimdagi yanvar, fevral va 21-martgacha bo'lgan davr oldingi muchal yili hisobiga kiradi. Odatda, odam yoshini muchal yili bilan hisoblaganda, unga yana bir yil qo'shiladi. Quyida muchal yili nomlari va sanalar beriladi.



1	Sichqon	1960	1972	1984	1996	2008	2020	2032	2044	2056	2068
2	Sigir	1961	1973	1985	1997	2009	2021	2033	2045	2057	2069
3	Yo'lbars	1962	1974	1986	1998	2010	2022	2034	2046	2058	2070
4	Quyov	1963	1975	1987	1999	2011	2023	2035	2047	2059	2071
5	Baliq	1964	1976	1988	2000	2012	2024	2036	2048	2060	2072
6	Ilon	1965	1977	1989	2001	2013	2025	2037	2049	2061	2073
7	Ot	1966	1978	1990	2002	2014	2026	2038	2050	2062	2074
8	Qo'y	1967	1979	1991	2003	2015	2027	2039	2051	2063	2075
9	Maymun	1968	1980	1992	2004	2016	2028	2040	2052	2064	2076
10	Tovuq	1969	1981	1993	2005	2017	2029	2041	2053	2065	2077
11	It	1970	1982	1994	2006	2018	2030	2042	2054	2066	2078
12	To'ng'iz	1971	1983	1995	2007	2019	2031	2043	2055	2067	2079

OY NOMLARINING MA'NOLARI

Hozir amalda qo'llanayotgan taqvimdagi o'n ikki oy nomi quyidagicha ta'riflanadi:

YANVAR – ikki yuzli Xudo Yanus sharafiga yandarius deb atalgan. Rimliklarning e'tiqodicha, ikki yuzli Xudo Yanus har bir narsaning boshi va oxirining homiysi bo'lgan emish.

FEVRAL – lotincha «februum» so'zidan olingan bo'lib, o'liklar tangrisi Februariy nomiga qo'yilgan, februarius so'zi tozalanish, poklanish ma'nosini beradi.

MART – bu oy dehqonlar va chorvadorlar homiysi Mars sharafiga atalgan, martius so'zidan olingan.

APREL – «apfire» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'z in'omlarini namoyon qiluvchi degan ma'noni bildiradi, boshqa manbalarda ma'buda Afrodita – go'zallik, muhabbat, shuningdek, hosildorlik tangrisi nomidan kelib chiqqan deyiladi.

MAY – ma'buda Maya (mayus) ismidan kelib chiqqan bo'lib, go'zallik, shod-xurramlik oyi hisoblanadi.

IYUN – Yupiter xotini – ma'buda Yunona sharafiga qo'yilgan. Afsonalarga ko'ra, Yunona ayollar homiysi, er-xotinlar qo'sha-qarishi, uvali-juvali bo'lishini ravo ko'rarkan.

IYUL – Rim davlat arbobi va lashkarchisi Yuliy Sezor sharafiga shunday atalgan.

AVGUST – Rim imperatori Oktavian Avgust sharafiga qo'yilgan. U Yuliy Sezorning nabira jiyani, vorisidir.

SENTABR – qadim rimliklarning 10 oylik taqvimida yettinchi oy bo'lib, lotincha septimber – yetti so'zidan olingan.

OKTABR – qadim rimliklar taqvimida sakkizinchi oy, lotincha oktober – sakkiz degan ma'noni beradi.

NOYABR – lotincha november (to'qqiz) so'zidan olingan bo'lib, qadimgi rimliklar taqvimida to'qqizinchi oyni anglatadi.

DEKABR – lotincha detsimber so'zidan kelib chiqqan bo'lib, dekim – o'n degan ma'noni beradi. Qadimgi rimliklar taqvimida bu o'ninchi oy bo'lib hisoblanadi.